



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar


2021- yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil etdi.

102,1 %

7879,1
mlrd. so'm


Jami investitsiyalar hajmida, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 67,6 %, yoki 5329,2 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davridagi hajmiga nisbatan 106,5 % tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 32,4 %, yoki 2549,9 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,9 % tashkil etdi.




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da




Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1867,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 23,7 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,4 % i yoki 978,0 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3010,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,3 % va shuningdek jami hajmdagi ulushi 38,2 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari



Shuningdek, Tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 684,1 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,7 % ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,7 foizli punktga oshdi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 1210,6 mlrd. so'm (15,4 % va 24,9 foizli punktga kamaydi), Xorijiy investitsiyalar 280,4 mlrd. so'm (3,6 % va 24,8 foizli punktga oshdi), Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 1519,2 mlrd. so'm (19,3 % va 30,4 foizli punktga oshdi), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 293,2 mlrd. so'm (3,7 % va 3,1 martaga oshdi), Respublika byudjeti 1000,1 mlrd. so'm (12,7 % va 7,5 foizli punktga oshgan), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 46,0 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 58,0 % ni tashkil etdi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar bulib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 martaga oshdi.

Respublikaning barcha tumanlarida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash ishlari va elektr energiyasini ishlab chiqarish, gaz ta'minoti loyihalarining bajarilishi, va shuningdek temir yo'l yo'lovchi transporti va yuk transportini yanada takomillashtirish ishlari bo'yicha loyihalar investitsion faollik bilan izohlash mumkin.

Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati ko'rsatkichi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan kuzatilib, usish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,5 % ni tashkil qildi.

***Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tumanlar kesimida
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar:***

	<i>Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mldr. so'm</i>	<i>shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha:</i>		
		<i>Respublika byudjeti</i>	<i>Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari</i>	<i>Aholining o'z mablag'lari</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7879,1	1000,1	1867,5	978,0
Nukus sh.	1596,1	353,6	711,0	73,0
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	447,9	21,8	36,0	84,8
Beruniy	399,9	60,5	66,5	90,6
Bo'zatov	114,6	44,4	7,9	10,6
Qorao'zak	311,8	28,4	68,4	23,1
Kegeyli	138,2	30,8	28,5	26,8
Qo'ng'irot	1034,3	35,4	328,1	46,5
Qonliko'l	99,1	8,8	10,9	42,4
Mo'ynoq	1347,3	89,0	292,6	39,4
Nukus	173,8	41,4	12,0	81,6
Taxiatosh	303,9	21,7	49,5	48,6
Taxtako'pir	85,6	14,3	15,8	19,6
To'rtko'l	761,9	69,5	52,4	136,3
Xo'jayli	228,9	43,1	34,2	67,5
Chimboy	207,3	40,5	36,1	58,3
Shumanay	145,2	20,2	42,1	33,2
Ellikqa'a	483,3	76,7	75,5	95,7





QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI


	<i>shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha:</i>			
	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3010,2	46,0	293,2	684,1
Nukus sh.	303,0	15,7	54,0	85,8
tumanlar:				
Amudaryo	108,8	3,3	143,3	49,9
Beruniy	144,2	0,6	4,9	32,6
Bo'zatov	5,3	2,4	3,8	40,2
Qorao'zak	145,7	-	6,6	39,6
Kegeyli	8,1	6,4	6,0	31,6
Qo'ng'irot	574,3	-	8,9	41,1
Qonliko'l	12,2	0,4	2,8	21,6
Mo'ynoq	890,9	0,1	0,9	34,4
Nukus	8,4	2,7	-	27,7
Taxiatosh	113,3	2,7	26,5	41,6
Taxtako'pir	14,6	0,5	2,1	18,7
To'rtko'l	413,6	0,8	8,6	80,7
Xo'jayli	46,3	3,1	4,0	30,7
Chimboy	31,2	4,6	7,1	29,5
Shumanay	18,2	1,8	2,5	27,2
Ellikqala	172,1	0,9	11,2	51,2

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar







To'rko'l tumani

*o'sish sur'ati, Investitsiyalar hajmi,
% da mlrd. so'm*



*Respublikadagi
ulushi, % da*



Xo'jayli tumani



Chimboy tumani



Shumanay tumani



Ellikqa'a tumani




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 167,1 % ga o'sib, Xo'jayli tumanida kuzatildi. Bu asosan sog'liqni saqlash, ta'lim va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash iqtisodiy xizmat turlariga o'zlashtirilgan investitsiyalar, shuningdek hududiy investitsiya loyihalariga kiritilgan "XOJELI UN MAXSULOTLARI" MCHJ da un maxsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi yirik loyihalar bilan bog'liq.

Shuningdek, Kegeyli tumanida ham yuqori o'sish surati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 153,3 % ni tashkil qildi. Sog'liqni saqlash, ta'lim va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash iqtisodiy xizmat turlariga o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan izohlash mumkin.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, % da

35,9

Mashina, uskuna,
inventar

57,7

Qurilish-
montaj ishlari

6,4

Boshqa
harajatlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 2826,2 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 35,9 % ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo'yicha 4543,3 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 57,7 %) va boshqa harajatlarga 509,6 mlrd. so'm (6,4 %) o'zlashtirildi.

Tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qo'ng'iroq tumanida kuzatildi – 86,1 % yoki 880,2 mlrd. so'm, va ushbu tumanda mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng quyi daraja – 11,0 % yoki 112,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Qorao'zak tumanida kuzatilib, 34,6 % ni yoki 108,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

**Yangi qurilish-
35,6 %**

**Kengaytirish,
rekonstruksiya,
modernizatsiya - 38,5 %**


**Boshqa yo'nalishlar-
25,9 %**

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirildi. Va hajmi 3032,0 mlrd. so'm va jami hajmdan ulushi 38,5 % tashkil etdi.

Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2802,8 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 35,6 % tashkil etdi.

Boshqa yo'nalishlarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2044,3 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 25,9 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, yakunga nisbatan % da



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

	Jami	Shu jumladan:			<i>mldr. so'm</i>
		To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3010,2	280,4	1210,6	1519,2	
Nukus sh.	303,0	53,8	107,9	141,3	
<i>tumanlar:</i>					
Amudaryo	108,8	73,0	29,8	6,0	
Beruniy	144,2	-	86,5	57,7	
Bo'zatov	5,3	-	0,8	4,5	
Qorao'zak	145,7	-	0,5	145,2	
Kegeyli	8,1	6,3	0,8	1,0	
Qo'ng'irot	574,3	140,6	374,8	58,9	
Qonliko'l	12,2	3,2	-	9,0	
Mo'ynoq	890,9	-	-	890,9	
Nukus	8,4	-	0,6	7,8	
Taxiatosh	113,3	-	93,1	20,2	
Taxtako'pir	14,6	-	-	14,6	
To'rtko'l	413,6	1,2	370,0	42,4	
Xo'jayli	46,3	-	0,4	45,9	
Chimboy	31,2	2,0	0,3	28,9	
Shumanay	18,2	0,3	-	17,9	
Ellikqal'a	172,1	-	145,1	27,0	

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 3010,2 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 38,2 % ini tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 280,4 mlrd. so'mni tashkil etib, xorijiy kreditlar hisobidan bo'lsa 2729,8 mlrd. so'mni o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da

27,3 %



Qishloq xo'jaligi

34,3 %



Tog'-kon sanoati

12,5 %



Qayta ishlash sanoati

13,6 %



Tashish va saqlash

5,3 %



Elektr energiyasi, gaz, bug' bilan ta'minlash

2,1 %



Ulgurji va chakana savdo

4,9 %

Boshqalar

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14
222-75-91